XALQ DEPUTATLARI QOROVULBOZOR TUMANI KENGASHINING

Q A R O R I

2025-yil 26-iyul VII-15-81-2-38-K/25 Qorovulbozor tumani

O‘zbekiston Respublikasining “Geografik obyektlarning nomlari to‘g‘risida”gi Qonuniga asosan tumandagi 7 ta mahallaning chegaralari aniq belgilangan hududdagi ko‘chalarni toifalar (ko‘cha, shoh ko‘cha, tor ko‘cha, berk ko‘cha)ga ajratish va nomsiz ko‘chalarni nomlash to‘g‘risida

O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining “Geografik obyektlarning nomlari to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi Qonuniga muvofiq geografik obyektlarning nomlari sohasidagi ishlarni tartibga solish chora-tadbirlari haqida”gi 2012-yil 16-oktabrdagi 295-sonli qarori talablaridan kelib chiqib hamda O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi rayosati majlisinining 117-sonli bayoni qarori ijrosini ta’minlash yuzasidan chora-tadbirlar rejasi asosida tumandagi 7 ta mahallaning chegaralari aniq belgilangan hududdagi ko‘chalarni toifalarga (ko‘cha, shoh ko‘cha, tor ko‘cha, berk ko‘cha) ajratish yuzasidan davlat kadastrlari palatasi Buxoro viloyati boshqarmasi Qorovulbozor tumani filiali tomonidan aniqlangan nomsiz ko‘chalarga nom berish bo‘yicha takliflarni Geografik obyektlarga nom berish masalalarini muvofiqlashtiruvchi Buxoro viloyati komissiyasi hamda geografik obyektlarga nom berish va ularni qayta nomlash to‘g‘risidagi takliflarni davlat ekspertizasidan o‘tkazish bo‘yicha O‘zbekiston Respublikasi Davlat soliq qo‘mitasi huzuridagi Kadastr agentligi Ekspert komissiyasining 2025-yil 6-martdagi 05-19-3567-sonli xulosasini ko‘rib chiqib, va “Geografik obyektlarning nomlari to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi Qonuni (O‘zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to‘plami, 2011-y, 41-son, 448-moddasi, 2011-y, 303-son, 10-moddasi)ga asoslanib, xalq deputatlari Qorovulbozor tumani Kengashi

QAROR QILADI:

1. Geografik obyektlarga nom berish va ularni qayta nomlash to‘g‘risidagi takliflarni davlat ekspertizasidan o‘tkazish bo‘yicha O‘zbekiston Respublikasi Davlat soliq qo‘mitasi huzuridagi Kadastr agentligi Ekspert komissiyasining 2025-yil 6-martdagi 05-19-3567-sonli geografik obyektlarga nom berish yoki ularni qayta nomlash to‘g‘risidagi takliflarning qonun hujjatlari talablariga muvofiqligi haqidagi xulosasi ma’qullansin.

2. Kadastr agentligi Buxoro viloyati boshqarmasi Qorovulbozor tumani filiali tomonidan aniqlangan nomsiz ko‘chalar ilovaga muvofiq nomlansin.

3. Ilovaning 4 bandidagi “Bo‘ston” mahallasi so‘zi “Bo‘zachi” mahallasi deb o‘qilsin.

4. Mahallalar uyushmasi tuman bo‘limi (G‘.Quvatov), tuman statistika bo‘limi (F.Jumayev), Kadastrlar palatasi Qorovulbozor tumani filiali (R.Boqiyev)ga tegishli davlat ro‘yxatidan o‘tkazish idoralari bilan birgalikda mazkur qarordan kelib chiqib hisobotlarga belgilangan tartibda o‘zgartirishlar kiritish topshirilsin.

5. Mazkur qaror ijrosini nazorat qilish xalq deputatlari Qorovulbozor tumani Kengashining Korrupsiyaga qarshi kurashish va xavfsizlik masalalari bo‘yicha doimiy komissiyasi (G.Nasirova) zimmasiga yuklatilsin.

Kengash raisi O‘.Hamroyev

Xalq deputatlari Qorovulbozor tumani Kengashining
2025-yil 26-iyuldagi
VII-15-81-2-38-K/25 -son qaroriga
1-ilova

Qorovulbozor tumani komissiyalari tomonidan taqdim etilgan geografik obyektlarni nomlash bo‘yicha berilgan taklifidan ekspert komissiyasi tomonidan O‘zbekiston Respublikasining “Geografik obyektlarning nomlari to‘g‘risida”gi 303-sonli Qonun hujjatlari talablariga muvofiq deb topilgan nomlar ro‘yxati

T/r	Geografik obyektning turi	Geografik obyektning joylashuvi	Geografik obyektning amaldagi nomi	Viloyat komissiyasi tomonidan berilgan taklif	Hududiy komissiya tomonidan berilgan xaritaga ekspert komissiyasining xulosasi	Ekspert komissiyasining umumiy xulosasi
1.	Ko‘cha	Bo‘ston mahallasi	Nomsiz	Qayrag‘och	Xaritada geografik obyektning turi to‘g‘ri ko‘rsatilgan	Qonun hujjatlari talablariga muvofiq
2.	Berk ko‘cha	Bo‘zachi mahallasi	Nomsiz	Oqoltin	Xaritada geografik obyektning turi to‘g‘ri ko‘rsatilgan	Qonun hujjatlari talablariga muvofiq
3.	Ko‘cha	Bo‘zachi mahallasi	Nomsiz	Toshquduq	Xaritada geografik obyektning turi to‘g‘ri ko‘rsatilgan	Qonun hujjatlari talablariga muvofiq
4.	Berk ko‘cha	Bo‘ston mahallasi	Nomsiz	Toshquduq	Xaritada geografik obyektning turi to‘g‘ri ko‘rsatilgan	Qonun hujjatlari talablariga muvofiq
5.	Ko‘cha	Bo‘zachi mahallasi	Nomsiz	Chorvador	Xaritada geografik	Qonun hujjatlari

					obyektning turi to‘g‘ri ko‘rsatilgan	talablariga muvofiq
6.	Tor ko‘cha	Bo‘zachi mahallasi	Nomsiz	Chorvador	Xaritada geografik obyektning turi to‘g‘ri ko‘rsatilgan	Qonun hujjatlari talablariga muvofiq
7.	Tor ko‘cha	Cho‘lquvar mahallasi	Nomsiz	Baxt-3	Xaritada geografik obyektning turi to‘g‘ri ko‘rsatilgan	Qonun hujjatlari talablariga muvofiq
8.	Berk ko‘cha	Cho‘lquvar mahallasi	Nomsiz	Baxtobod	Xaritada geografik obyektning turi to‘g‘ri ko‘rsatilgan	Qonun hujjatlari talablariga muvofiq
9.	Tor ko‘cha	Cho‘lquvar mahallasi	Nomsiz	Temiryo‘l-5	Xaritada geografik obyektning turi to‘g‘ri ko‘rsatilgan	Qonun hujjatlari talablariga muvofiq
10.	Tor ko‘cha	Cho‘lquvar mahallasi	Nomsiz	Temiryo‘l-6	Xaritada geografik obyektning turi to‘g‘ri ko‘rsatilgan	Qonun hujjatlari talablariga muvofiq
11.	Tor ko‘cha	Cho‘lquvar mahallasi	Nomsiz	Temiryo‘l-7	Xaritada geografik obyektning turi to‘g‘ri ko‘rsatilgan	Qonun hujjatlari talablariga muvofiq
12.	Tor ko‘cha	Cho‘lquvar mahallasi	Nomsiz	Temiryo‘l-8	Xaritada geografik obyektning turi to‘g‘ri ko‘rsatilgan	Qonun hujjatlari talablariga muvofiq